

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Кахаров Жасур Абулқосимович</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Рахмонов Шухрат Шавкатович</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИННИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Шоназаров Жамшид Шухратович</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржоновна*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*
TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368
- Утанов Фурқат*
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
МАҚОМИ 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI 375-381
- Назарова Марҳабо*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ
МАСАЛАЛАРИ 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

12.00.00-YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

SOME THEORETICAL-LEGAL ISSUES OF THE CODIFICATION PROCESS IN THE LEGAL SYSTEMS OF THE CENTRAL ASIAN STATES

Akhmedshaeva Mavluda Akhatovna,

Professor, Department of Theory and History of State and Law, Tashkent State Law University,
Doctor of Law,
e-mail: maviudaahmedshaeva@gmail.com

Abstract. The article notes that the rapid development of social relations leads to the adoption of new normative legal acts and, as a result, to an increase in their number, and such a situation requires systematization of the current legislation; on the basis of specific examples, the role of codification, as well as the general and specific features of this process in the legal systems of the Central Asian countries is analyzed and the relevant conclusions are formulated.

Key words: law, legal system, Romano-Germanic legal family, Anglo-Saxon legal family, influence of legal systems, legal document, legislation, systematization of legislation, incorporation, consolidation, codification, code.

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA
KODEKSLASHTIRISH JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna,

TDYU "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrası professori, yu.f.d.,

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy munosabatlarning shiddatli rivoji yangidan-yangi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinib, ularning soni ko'payishiga, bu holat esa qonunchilikni sifatli tizimlashtirishni taqozo etishi, tizimlashtirishning muhim turi bo'lgan kodifikatsiyalash jarayoni va uning Markaziy Osiyo davlatlari huquq tizimlarida umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga egaligi aniq misollarda tahlil etilib, tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: huquq, huquqiy tizim, romano-german huquqiy oilasi, anglo-sakson huquqiy oilasi, huquqiy tizimlar ta'siri, normativ-huquqiy hujjat, qonunchilik, qonunchilikni tizimlashtirish, inkorporatsiya, konsolidatsiya, kodifikatsiya, kodeks.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N43>

Kirish. Jahon huquqiy tizimlari rivoji tendensiyalari ko'p omillarga bog'liq holda kechishi tabiiy jarayondir. Bugungi kunda ushbu omillar ichida jahon huquqiy tizimlarining biri-biriga ta'sir etishi, o'zaro harakatda bo'lishi kabi jihatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eng yirik huquqiy oilalar hisoblangan romano-german va anglo-sakson huquqiy oilalari o'z

mohiyatiga ko'ra bir-biridan jiddiy farq qilishsa-da, keyingi paytlarda ularning ayrim xususiyatlari, belgilari bir-biriga ta'sir etayotganligini e'tirof etish mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar huquqiy tizimlari o'z mohiyati va parametrlariga ko'ra asosan romano-german huquqiy oilasiga mansub bo'lishsa-da, ayni paytda ular Yevropa Ittifoqi sudi qarorlariga rioya etishadi. Bu qarorlarning ma'lum qismi esa o'z mohiyatiga ko'ra, yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, "de facto" pretsedent xarakteriga ega ekanligini ko'pgina olimlar ta'kidlashadi[1].

Shu nuqtayi nazardan olganda romano-german huquqiy oilasiga mansub bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari huquqiy tizimlari ham jahon, Yevropa va mintaqa huquqiy rivojlanishi xususiyatlari ta'siridan xoli emas, albatta. Bu davlatlar huquqiy tizimlarida kechayotgan jarayonlarni tahlil etish va bu jarayondagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, o'z navbatida, ma'lum darajada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, huquq nazariyasining taniqli vakili S.S.Alekseev huquqiy izlanishlarning milliy qobiq ichida chegaralanib qolishi zararlighi haqida fikr yuritib, yozganidek, ma'lum bir davlat doirasida huquqiy bilimlarning milliy cheklanganligi, uning sof pozitivistik milliy material doirasida cheklanishi, garchi u har bir huquqshunos uchun qanchalik muhim bo'lmasin, oxir oqibatda, chinakam fan bo'lgan yurisprudensiya uchun halokatli hisoblanadi, degan fikriga qo'shilmay bo'lmaydi[2].

Masalaning yana bir tomoni borki, romano-german huquqiy oilasining muhim belgilaridan biri sifatida unda anglo-sakson huquqiy oilasiga nisbatan kodekslashtirish jarayonining faolligi hisoblanadi. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlaridagi qonunchilikni tizimlashtirishning muhim bir shakli sifatida kodekslashtirish jarayoni, uning qanday yangi tendensiyalar ostida kechayotganligi, qanday umumiy va o'ziga xos jihatlarga egaligi masalasi muayayn ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Materiallar va metodlar. Maqolada tahlil va sintez, mantiqiy, tizimli va tarixiy usullar kabi atrofdagi huquqiy borliqni tushunishning umumiy ilmiy usullari, shuningdek, qiyosiy huquqiy, rasmiy huquqiy usul kabi xususiy huquqiy usullar qo'llanilgan.

Natija va munozara. Hozirgi vaqtda ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi va shiddatli rivojlanishi ularni normativ tartibga solish jarayonini ham murakkablashtirmoqda. Boz ustiga, yangi murakkab ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi ham (massivi) muntazam ravishda ko'payib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, qonun hujjatlarini tizimlashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishi tabiiydir.

Qonunchilikni tizimlashtirishning ahamiyati shundaki, u qonunchilik hujjatlarini bir tizimga solib, undan foydalanishni osonlashtirish barobarida, undagi kamchiliklar, ziddiyatlarni, bo'shliqlar va kolliziyalarni bartaraf etishga ko'maklashadi ham.

Ta'kidlash kerakki, qonunchilikni tizimlashtirish borasida yuridik adabiyotda ko'plab fikrlar bildirilgan, darsliklarda esa tegishlicha ta'rifi va tavsifi berilgan. Biroq, shunga qaramasdan, ilmiy adabiyotlarda "qonunchilikni tizimlashtirish" borasida yakdillik kamligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, S.A. Komarov qonunchilikni tizimlashtirishni uni izchil bir tizimga keltirish, unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning hayotiy zarurati deb tushunadi[3]. D.V. Chuxvichevning fikricha, qonun hujjatlarini tizimlashtirish me'yoriy-huquqiy hujjatlar tuzilmasini ma'lum bir tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida belgilanishi mumkin [4].

Bizning fikrimizcha, qayd etilgan mualliflar qonun hujjatlarini tizimlashtirish vazifalarini biroz tor tushunishganga o'xshaydi. R.A.Romashovning fikriga ko'ra, qonunchilikni tizimlashtirish vakolatli subyektlarning normativ-huquqiy hujjatlarni amalda qo'llashni osonlashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar, noaniqliklar, bo'shliqlarni bartaraf etish va shu tariqa qonunchilik tizimini yaxlit takomillashtirish maqsadida ularni tartibga solish bo'yicha maqsadli faoliyatidir. Shunday qilib, ushbu muallif qonunchilikni tizimlashtirish vazifalarini ham normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solishda, ham yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda ko'radi [5]. Yuqoridagi mualliflar fikrlaridagi umumiy jihat bo'lib, qonunchilikni tizimlashtirish uni takomillashtirishga olib keladi, degan fikrdir.

L.A. Morozovaning fikricha, qonun hujjatlarini tizimlashtirish uni yagona tizimga keltirish, tartibga solish, birinchidan, kerakli normativ-huquqiy hujjatni tezda topish, unga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish jarayonlarini kuzatish imkonini beradi; ikkinchidan, normativ materialdagi bo'shliqlar, ziddiyatlar va boshqa nomuvofiqliklarni aniqlash; uchinchidan, amaldagi qonunchilik tizimini takomillashtirishda o'z ifodasini topadi[6].

A.S. Pigolkin va A.N.Golovistikova haqli ravishda ta'kidlaganidek, qonunchilikni tizimlashtirish amaldagi huquq tizimini rivojlantirish va uni tartibga solib borishning doimiy shaklidir [7].

V.V.Gruzdevning ta'kidlashicha, qonun hujjatlarini tizimlashtirish - bu mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ishlash, qayta guruhlash va to'plamlar yoki yig'ma aktlar shaklida yaxlit tizimda taqdim etish orqali ularni maqsadli ravishda tartibga solish va takomillashtirishdir[8].

Shunday qilib, yuqoridagi ta'riflardan "qonun hujjatlarini tizimlashtirish" uni yagona tizimga keltirish, tartibga solish va qonun hujjatlarini inventarizatsiya qilishga olib keladi, shu bilan birga undagi kamchiliklar va ziddiyatlarni aniqlaydi va shu orqali qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Qonun hujjatlarini tizimlashtirishning muhim shakllaridan biri ularni kodekslashtirishdir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yuridik adabiyotlarda qonunchilikni tizimlashtirishning eng yuqori shakli sifatida kodekslashtirishning o'zi haqida ham, uning xususiyatlari, maqsadlari va boshqalar haqida ham umumiy, yakdil fikr mavjud deyish qiyin [9].

Ayni paytda, ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, kodekslashtirish qonun hujjatlarini tizimlashtirishning bir turi sifatida bir qator xususiyatlarga ega:

-kodekslashtirish akti jamiyat hayotining muayyan sohasida amal qiluvchi hujjatlar orasida eng muhimi bo'lib, u tegishli huquq sohasi yoki institutining barcha normalarining mohiyati va mazmunini belgilovchi umumiy tamoyillarni o'z ichiga oladi;

-bunday akt munosabatlarning muhim va yetarlicha keng sohasini (mulk, mehnat, nikoh va oilaviy munosabatlar, jinoyatchilikka qarshi kurash va boshqalar) tartibga soladi;

- kodekslashtirish hujjati – yagona, o'zaro uzviy bog'liq hujjat bo'lib, u hayotda ham, ijtimoiy amaliyotda ham sinovdan o'tgan mavjud normalarni, shuningdek, ijtimoiy hayot dinamikasi va jamiyatning dolzarb ehtiyojlari bilan belgilanadigan yangi qoidalarni o'z ichiga oladi;

- kodekslashtirish uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, yanada barqaror normalarni yaratishni ta'minlaydi;

- kodekslashtirish normativ hujjatlarning tizimligini, ularning huquqiy birligi va izchilligini mustahkamlaydi. Kodekslashtirish hujjati odatda qonunchilikning ma'lum bir tarmog'ini yoki alohida institutini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq normativ hujjatlar tizimini o'zida ifodalaydi;

- kodekslashtirish hujjati har doim katta hajmga va murakkab tuzilishga ega (qismlar, bo'limlar, boblar va boshqa bo'limlar) bo'ladi. Bu me'yoriy talablar tizimini yanada aniq qurishni, shuningdek, foydalanish qulayligini ta'minlaydigan o'ziga xos yiriklashtirilgan qonun hujjatlari jamlanmasidir. [10].

Shuni ta'kidlash kerakki, kodekslashtirish qonun hujjatlarini tizimlashtirish shakli sifatida nafaqat qonun hujjatlari mazmuniga, balki uning shakliga ham ta'sir qiladi.

Shu bilan birga T.Ya. Xabriyevaning fikricha, qonun hujjatlarini kodekslashtirish huquqiy tartibga solish mexanizmining normal ishlashini ta'minlash uchun zarur, lekin u maqsadga aylanishi kerak emas, balki huquqiy hujjatlarning yaxlit, muvofiqlashtirilgan tizimini yaratish vositasi bo'lishi kerak [11].

Qonun hujjatlarini kodekslashtirishning asosiy shakli hamda yirik jamlashtirilgan hujjat sifatida ham Kodeks, ta'bir joiz bo'lsa, ancha keng tarqalgan qonunchilikni tizimlashtirish shakli hisoblanadi. Binobarin, 1804-yilda Fransiyada Napoleon Bonapart rahbarligida Fransiya fuqarolik kodeksi qabul qilingan vaqtdan beri bir necha asrlar o'tgan bo'lishiga qaramasdan, kodekslashtirish qonunchilikni tizimlashtirishning samarali shakli sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolayotganligini e'tirof etish zarur [11].

Taniqli olim Yu.A.Tixomirovning fikricha, kodeksni boshqa huquqiy hujjatlardan ajratib turadigan quyidagi xususiyatlari mavjud:

- a) kodeks – normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida yuqori o'rinni egallagan qonun;
- b) kodeks yagona tamoyillar asosida ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat jamlanmasi;
- v) kodeks ijtimoiy munosabatlarning muhim va ancha keng sohasini tartibga soladi;
- d) kodeks bir hil ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mazmuni va usullariga sezilarli yangilik kiritadi;
- e) kodeks tartibga solishning to'liqligini ta'minlaydi va tartibga soluvchi normalarning ichki birligi, yaxlitligi va izchilligi bilan tavsiflangan yirik birlashtirilgan hujjatdir;
- f) kodeks qonunchilikni tartibga solish va mustahkamlashga xizmat qiladi [13].

Yirik fransuz olimi Djon Luis Berjel ta'kidlaganidek, "Keng ma'noda tushunadigan bo'lsak, kodeks – bu muayyan masalaga oid qonunlar, hujjatlar yoki huquqiy qoidalar to'plamidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bu "bir to'plamga jamlangan, bir nechta huquqiy masalalardan biri bo'yicha ko'proq yoki kamroq to'liq qoidalar tizimini o'z ichiga olgan qonunlar yoki qoidalar to'plamidir. Bu qonunchilikka tatbiq etiladigan "uslub ruhi" mahsulidir" [14].

Kodekslashtirish va kodekslar haqida gap ketganda, kodekslarning turlari masalasi ham muayyan ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otishi tabiiy. Agarda Fuqarolik, Jinoyat kodekslari an'anaviy ravishda romano-german huquqiy oilasi huquqiy tizimlarida, shu jumladan MDHda tarmoq (soha) kodekslari sifatida keng tarqalgan bo'lsa, Saylov, Shaharsozlik va Byudjet kodekslari esa boshqa yo'nalishga ega, ya'ni bular tematik tusga ega, deyish mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlar mazmunidan ko'rinib turibdiki, qonun hujjatlarini tizimlashtirish u yoki bu shaklda amaldagi qonunchilikni tartibga solish, takomillashtirish,

bo'shliqlar, ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni bartaraf etish omili, vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Ayni paytda Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda milliy huquq tizimi ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va raqamlashtirish tufayli jadal rivojlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida ushbu munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga hamda ularni tizimlashtirish, jumladan, kodekslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shu o'rinda Markaziy Osiyo davlatlarining rivojlanishida farqli jihatlardan ko'ra, ularni birlashtirishga xizmat qiluvchi umumiy jihatlarga ko'proq, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Bunday holatga asos bo'lib, ushbu davlatlarning tarixiy rivojlanishi, dini, madaniyati, urfu-odatlarini, mentaliteti juda yaqinligi hamda ular joylashgan hudud hisoblanadi.

Shu bilan birga, garchi bu davlatlar deyarli bir tarixiy davrda mustaqillikka erishgan va o'z davlatchiligini rivojlantirishga kirishgan bo'lsa-da, bugungi kunda ularning rivoji, xususan, huquqiy rivojlanishida muayyan o'ziga xosliklar mavjud bo'lishi tabiiydir [15].

Ushbu davlatlar huquqiy tizimidagi kodekslashtirish jarayoni haqida fikr yuritganda, aytish kerakki, huquqiy tizimi romano-german huquqiy oilasiga mansub davlatlar sifatida, ularda ushbu jarayon ko'plab umumiy jihatlarga egaligini ko'rish mumkin. Bu umumiylik, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning, jumladan, sohalaridagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan kodekslar tizimining o'xshashligi va yaqinligi kabilarda ham ko'rinadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining deyarli barchasida an'anaviy tusdagi kodekslar mavjudligini ta'kidlash kerak. Bunday kodekslar sirasiga dastlab, hamma davlatlar huquq tizimida ham amalda bo'lgan, **bir nomdagi va obyektlari o'xshash bo'lgan** kodekslarni kiritamiz. Bunday kodekslar sirasiga avvalambor, Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Jinoiy, Jinoiy-protsessual, jinoiy-ijroiya, ma'muriy javobgarlik, ma'muriy protsessual, mehnat, oila, uy-joy, bojxona, soliq, Yer, Havo, Byudjet, Saylov [16] kodekslarini kiritishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan kodekslar nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlarida, balki romano-german huquqiy oilasiga mansub barcha davlatlarda, jumladan, MDH mamlakatlarida ham amal qiladi. Qayd etilgan kodekslarning ma'lum qismi anglo-sakson huquqiy oilasiga mansub davlatlarda ham u yoki bu tarkibda mavjud.

Qayd etilgan kodekslarni tartibga soladigan munosabatlari mazmuniga qarab, **ikki guruhga** ajratish mumkin: bir **huquq tarmog'i(sohasi)** doirasida amal qiladigan (tepada sanab o'tilgan 16 nomdagi kodekslar) va **muayyan bir munosabatlar turini** tartibga soluvchi (Shaharsozlik, Byudjet, Saylov kodekslari kabi) kodekslar.

Ayni chog'da kuzatishimizcha, Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qirg'iziston huquqiy tizimida kodekslashtirish jarayonlari muayyan o'ziga xoslikka ega. Binobarin, ushbu davlat huquqiy tizimida "Bolalar haqida", "Nojo'ya harakatlar haqida" (o prostupkax), "Huquqbuzarliklar (O Narusheniyax) haqida" Kodeks, "Nosoliq (yoki soliqsiz)(nenalogovyx) daromadlar" haqidagi kodekslarni keltirishimiz mumkin. Ushbu kodekslarning qabul qilinishiga obyektiv sabablar mavjud, albatta.

Qirg'iziston Respublikasining "Nojo'ya harakatlar haqida" (o prostupkax), "Huquqbuzarliklar (O narusheniyax) haqida" Kodekslari va ularning qabul qilinishi muayyan qiziqish uyg'otadi. Binobarin, ushbu kodekslarning nomlanishi va ular tartibga soladigan munosabatlar va ular o'rtasidagi nisbat masalasi o'ziga xosligini ko'rishimiz mumkin. Masalan,

Nojo'ya harakatlar to'g'risidagi Kodeksni oladigan bo'lsak, dastlab, yodimizga davlat va huquq nazariyasidan, qolaversa, jinoyat huquqi nazariyasidan olgan bilimlarimiz keladi. Zero huquqbuzarliklar ikki guruhga, ya'ni jinoyat va nojo'ya harakatlarga bo'linadi. Shunga asoslangan holda, ushbu kodeks barcha nojo'ya harakatlarni, ya'ni JK bilan tartibga solinadigan jinoiy-huquqiy munosabatlardan boshqa huquqbuzarliklarni, jumladan, ma'muriy, fuqaroviy, intizomiy va boshqa nojo'ya harakatlarni tartibga soladi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu xolda Huquqbuzarliklar (o narusheniyax) haqidagi kodeksning predmeti qanday munosabatlarni tartibga soladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Kodeslarning nomlanishi ham shunday savolni keltirib chiqaradi.

Shu boisdan bo'lsa kerak, Qirg'iziston Respublikasining **Nojo'ya harakatlar** (o prostupkax) to'g'risidagi kodeksi QRning 2021-yil 28-oktyabrdagi 126-son Qirg'iziston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksini kuchga kiritish va Qirg'iziston Respublikasining ayrim qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi Qonuni bilan **o'z kuchini yo'qotgan** [17].

Shu o'rinda Huquqbuzarlik haqidagi kodeksning 14-moddasiga e'tibor qaratamiz. Unda ta'kidlanishicha, agarda ushbu qilmish Qirg'iziston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka olib kelmasa, bu holda qilmish uchun Huquqbuzarlik haqidagi kodeksda nazarda tutilgan javobgarlik vujudga keladi[18]. Bu joyda huquqbuzarlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi kodekslarning predmeti o'ziga xos taqsimlanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Mintaqaning qolgan davlatlarida huquqbuzarliklarga oid moddiy normalar asosan JK, MJK va boshqa qonun hujjatlari orqali tartibga solinadi.

Bundan tashqari, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston va Tojikistonda O'rmon va Suv kodekslarining mavjudligi ushbu mamlakatlarda o'rmon hududlarining ko'pligi, suv masalasining murakkabligi bois hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarning ko'payib ketganligi ularni kodekslashtirish ehtiyojini keltirib chiqargan, degan xulosaga olib keladi [19].

Qirg'izistonda Bolalar haqida kodeksning qabul qilinishi bu sohadagi huquq normalarini qo'llash samaradorligi oshirish maqsadi bilan bir qatorda, mazkur davlatning bu masaladagi qonunchilikni tizimlashtirishga bergan e'tibori ifodasi ham, deb e'tirof etish mumkin.

Shu o'rinda Markaziy Osiyo davlatlari huquq tizimlaridagi ayrim kodekslarning mavjudligi hamda ayrim kodekslarning nomlanishida o'ziga xoslik mavjudligini ta'kidlash mumkin. Masalan, Qozog'istonda ma'muriy-protsessual munosabatlarni tartibga soladigan Ma'muriy protsedura-protsessual kodeksi, Ijtimoiy kodeks (Turkmanistonda Aholining ijtimoiy himoyasi haqida kodeks), Tadbirkorlik kodeksi (O'zbekistonda shu nomdagi kodeks Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilmoqda), Ekologik kodeks, Xalq sog'lig'i va sog'liqni saqlash tizimi haqida Kodeks ((O'zbekistonda Ekologiya, Sog'liqni saqlash kodekslarini qabul qilish rejalashtirilgan)lar harakat qilmoqda.

Turkmanistondagi kodekslashtirish jarayoni haqida fikr yuritadigan bo'lsak, unda Sanitariya kodeksi va Dengiz savdosi Kodeksi (Kodeks torgovogo moreplavaniya) mavjudligi ko'rishimiz mumkin. Sanitariya kodeksi "aholining sanitar-epidemiologik farovonligini, fuqarolarning maqbul atrof-muhitga va boshqa shu bilan bog'liq huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarini belgilaydi. Dengiz savdosi Kodeksi esa mamlakatning hududi dengizga yaqinligi bilan tavsiflanadi. Arbitraj-protsessual kodeksi ham amal qiladi.

Tojikistondagi kodekslar tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda Avtomobil transporti, Sog'liqni saqlash, Jinoiy jazolarni ijro etish Kodekslari mavjudligini ko'ramiz [20].

Shu o'rinda garchi huquq tizimi, qonunchilik tizimidan farq qilgan holda ma'lum darajada obyektiv omillar ta'siri ostida shakllanishini e'tiborga olgan holda aytish mumkinki, kodekslashtirish jarayoni ham obyektiv omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi, biroq bu jarayonda subyektiv omilning ta'siri yo'q, deb ham aytib bo'lmaydi.

Shunga bog'liq holda mintaqa davlatlari huquqiy tizimlarida kodekslashtirish jarayonining istiqbollari masalasi muayyan ilmiy qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Ayni chog'da ta'kidlash joizki, O'zbekistonda hozirda Tadbirkorlik, Ekologik, Axborot kodeksi, Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi, Sog'liqni saqlash to'g'risidagi kodekslarning loyihalari ishlab chiqilmoqda, ayrimlari muhokama bosqichida, masalan, tadbirkorlik kodeksi joriy yilning 16-iyul kuni Parlamentning Qonunchilik palatasi tomonidan 1-o'qishda qabul qilindi[21].

Shu o'rinda mintaqa davlatlari huquqiy tizimida garchi bir xil, ya'ni, an'anaviy tarmoq va tematik kodekslar mavjud bo'lishi bilan birga, ularning ayrimlarida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish, ayrim hollarda geografik, hududi va va tabiati bilan bog'liq holda ba'zi kodekslarning qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosalar:

- yuridik fanda, jumladan, milliy yuridik fanda qonun hujjatlarini tizimlashtirish va uning inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodekslashtirish kabi turlari yetarlicha o'rganilmagan, bu masalalar bo'yicha nazariy ishlanmalar kam, shu munosabat bilan qonunchilikni tizimlashtirish va uning shakllarining huquqni qo'llash jarayonidagi amaliy ahamiyati, nazariy masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish zarurati mavjud.

- bugungi kunda milliy yuridik fanda yaxlit kodeks nazariyasi ishlab chiqilmagan. Bunga oid ko'pgina masalalarga amaldagi qonunchilikda yoki milliy huquqiy doktrinada yetarlicha javob yo'q. Masalan, kodeks qanaqa maqomga ega, u qonunning bir turi sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qanday o'rin tutadi, uning qonun bilan o'zaro yuridik kuchi nisbati qanday, qachon muayyan bir sohada kodeks yaratishga ehtiyoj tug'iladi, xususan bir sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar soni ma'lum bir raqamni tashkil etgandami, kodeksning ichki strukturasi qanaqa? - kabi savollarga asoslangan javoblar ilmiy izlanishlarda aks etishi kerak;

- mintaqa mamlakatlari huquqiy tizimlarida kodekslashtirish jarayonlari dinamik tarzda rivojlanmoqda, bir qancha kodeks loyihalari ishlab chiqilmoqda, ayni paytda jamiyatda ijtimoiy munosabatlar bir joyda to'xtab qolmaydi, yangilari vujudga keladi, shunga bog'liq holda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi zarurati paydo bo'ladi, shu tariqa qonunchilik tizimi tobora ko'payib boradi, bu holat esa o'z navbatida ularni qo'llashda muayyan qiyinchiliklarga olib keladi, takrorlanishlar, noaniqliklar yuzaga keladi va hokazo. Ushbu sohalardan biri turli darajadagi va yuridik kuchga ega bo'lgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan norma ijodkorlik jarayonidir. Shu munosabat bilan, ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlarni birlashtirib, tizimlashtirib, Norma ijodkorligi to'g'risidagi kodeks (yoki Huquq ijodkorligi to'g'risidagi kodeks) loyihasini ishlab chiqishni zarur deb hisoblaymiz.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Pretsedent v praktike Suda Yevropeyskogo Soyuza // SCRIPTORIUM JUS COMMUNE, № 3 (19) • 2016. № 3 (19) • 2016.
2. Alekseev S.S. Проблемы общей теории права.// <http://i.uran.ru/nasledie/content/problema-vseobshchey-teorii-prava>.
3. Komarov S.A. Общaya teoriya gosudarstva i prava. SP(b).:Piter, 2014, (512 s.) S.279.
4. Chuxvichev D.V. Zakonodatel'naya texnologiya. - 2-ye izd. pererabotannoye i dopolnitel'noye - M.: YEDINSTVO-DANA: Zakon i Pravo. 2014. (415 str.)
5. Teoriya gosudarstva i prava. Ed. R.A.Romashova.-SP(b): Red. "Pravovoy Sentr Press", 2015, (650 str.), S.270.
6. Morozova L.A. Teoriya gosudarstva i prava.4-ye izd. M.: Izdatel'stvo. Eksmo. str.23
7. Sistemizatsiya zakonodatel'stva Rossiyskoy Federatsii, pod red. KAK. Pigolkina. Sankt-Peterburg: Yuridicheskiy sentr. Najimat. 2003. S.382.; Golovistikova A.N. Problemy teorii gosudarstva i prava. M.: Izdatel'stvo EKSMO. S. 471.
8. Gruzdev V.V. Teoriya gosudarstva i prava. Ed. V.V. Gruzdeva. Izdano Gosudarstvennym universitetom Bonfayr, 2018. S.90.
9. Ob istorii kodifikatsii sm.: Wencelas J.Wagner. Codification of Law in Europe and Codification Movement in the Middle of the devyatnadsatogo veka v SSHA // https://www.repository.law.indiana.edu/facpub/facpub?utm_source=www.repository.law.indiana.edu%2Ffacpub%2F2324&utm_medium=PDF&utm_campaign=PDFCoverPages.; Jan Lu Berjel. Основные особенности и методы кодификации // Обзор права Луизианы. Том 48/Номер 5, май 1988 г./ digitalcommons.law/lsu.edu/lairev/vol48/iss5/3
10. Barsukova V.N. Sistemizatsiya zakonodatel'stva i yee vliyaniye na strukturirovaniye kodifitsirovannykh aktov // Pravovaya politika i pravovaya jizn. 2010, № 2, str. 196-202.
11. Xabriyeva T.Ya. Kodekslashtirish rossiyskogo zakonodatel'stva v usloviyax federativnogo gosudarstva // <https://cyberleninka.ru/article/n/kodifikatsiya-rossiyaskogo-zakonodatel'stva-sovremennost-i-perspektivy-razvitiya>
12. Tixomirov Yu.A. Teoriya kodeksa // <https://cyberleninka.ru/article/n/kodifikatsiya-rossiyaskogo-zakonodatel'stva-sovremennost-i-perspektivy-razvitiya>
13. Kodeks Napoleona: yego proshloye i budushcheye// <https://www.nlb.by/content/news/book-exhibitions-nlb/kodeks-napoleona-ego-proshloe-i-budushcheye/>
14. Jean Lous Bergel. Principal Features and Methods of Codifications // Louisiana law Review. Volume 48/ Number 5, may 1988.P.4.
15. Sm.: https://nrm.uz/products?folder=228649_normativ-huquqiy-aktlarni-tayerlash-qabul-qilish-va-tizimlashtirish&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana.
16. V Uzbekistane deystvuyet Kodeks administrativnogo sudoproizvodstva // <https://lex.uz/docs/3527365>; <https://base.spininform.ru/spisdoc.fwx?countryid=tj&doctype=3>
17. <https://cbd.minjust.gov.kg/112305/edition/1127825/ru> // https://continent-online.com/Document/?doc_id=34166859#pos=5;-142.
18. Kodeksy Kazaxstana/ <https://base.spininform.ru/spisdoc.fwx?countryid=tj&doctype=3/>
19. Kodeksy Tadjikistana/ <https://base.spininform.ru/spisdoc.fwx?countryid=tj&doctype=3/>
20. Kodeksy Turkmenistana /<https://base.spininform.ru/spisdoc.fwx?countryid=tj&doctype=3>
21. Tadbirkorlarga qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqi beriladi// <https://kun.uz/kr/42635279>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).